

“Kapitalbank” ATB

Kengashi tomonidan

2015 yil 24 dekabrda

“TASDIQLANDI”

(57-Sonli bayonnoma)

Bank Kengashi raisi

_____ F.X. Otaxonov

**“KAPITALBANK” AKSIYADORLIK
TIJORAT BANKINING 2016 YILGI
DIVIDEND SIYOSATI**

Toshkent - 2015

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. “Kapitalbank” ATBning mazkur Dividend siyosati (keyingi o‘rinlarda – siyosat) O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari (yangi tahriri), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2000 yil 24 iyulda 472-son bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 5 iyulda 943-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Tijorat banklarida korporativ boshqarish to‘g‘risidagi nizom, “Kapitalbank” ATB Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan va “Kapitalbank” ATBning (keyingi o‘rinlarda – bank) 2016 yilda aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdori, ularni to‘lash shartlari, tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi tavsiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha maqsadlari va strategiyasini belgilaydi.

2. Siyosat bankning investitsiyaviy jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi va kapitallashtirilishi, aksiyadorlarning O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, bank Ustavi va uning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish va ularga rioya etishga asoslanadi.

3. Mazkur siyosatga muvofiq, dividend - bank sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismidir. Dividendlar aksiyadorlar o‘rtasida, ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari yoxud bankning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin.

5. Bankning joylashtirilgan aksiyalari bo‘yicha dividendlarni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish bankning huquqi hisoblanadi. Bankning joylashtirilmagan aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lanmaydi.

6. E‘lon qilingan dividendlarni to‘lash bankning majburiyati hisoblanadi. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq mazkur majburiyatlarning bajarilmasligi yuzasidan dividendlarni olish huquqiga ega aksiyadorlar oldida javobgar bo‘ladi.

7. Bank aksiyadorlarga ularga tegishli bo‘lgan aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lashda soliq agenti hisoblanadi. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, dividendlardan olinadigan soliq summalarini hisob-kitob qiladi, ushlab qoladi va o‘tkazadi yoki soliq solishning imtiyozli rejimini qo‘llaydi. Dividendlar aksiyadorlarga O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligida nazarda tutilgan summalar, ulardan ushlab qolingan soliqlar chegirib qolingan holda to‘lanadi.

2-BOB. SIYOSAT TAMOYILLARI

8. Bank aksiyalari bo‘yicha to‘lanadigan dividendlar miqdorini muayyan barqaror darajada saqlab turish siyosatning asosiy tamoyili hisoblanadi. Olib borilayotgan siyosat bank aksiyalarining bozor qiymatini oshirish va tegishli darajada saqlashga qaratilgan.

9. Siyosat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

a) dividendlar to‘lovlarini amalga oshirishda vaqt chegaralarini belgilovchi o‘z vaqtidalik tamoyili;

b) asoslanganlik tamoyili, dividendlar to‘lash va miqdori haqida qaror faqat bank tomonidan ijobiy moliyaviy natijaga erishilgan taqdirdagina bankning rivojlanish strategiyasi va investitsiya dasturini hisobga olgan holda qabul qilinishi mumkinligi tushuniladi.

3-BOB. DIVIDENDLAR MIQDORINI BELGILASH VA ULARNI TO‘LASH TO‘G‘RISIDA QAROR QABUL QILISH (E‘LON QILISH) TARTIBI

10. Agar qonunchilik va bank ustavi bilan boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, bank moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Har bir turdagi aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lash (moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra), dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror bank Kengashi tavsiyasi, ishonchliligi to‘g‘risida auditorlik

xulosasi mavjud bo'lgan holda moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlar miqdori bank Kengashi tavsiya etgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror (e'lon) tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

11. Bank Kengashining aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tavsiyalari dividendlarni to'lashga yo'naltiriladigan foydaning umumiy summasini, shuningdek har bir turdagi bir dona aksiyaga to'g'ri keladigan dividendlar summasini o'z ichiga olishi lozim.

12. Dividendlar bankning bank tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

13. Agar dividendlar to'lash oqibatida aksiyadorlik jamiyatining moliya-xo'jalik ahvoli jiddiy tarzda yomonlashadigan bo'lsa, dividendlar to'lash taqiqlanadi.

14. Bank:

a) bank ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

b) agar dividendlar to'lanadigan paytda bankda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki bankda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

v) agar bank sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, bank hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

Bunda O'zbekiston respublikasi Markaziy banki qonunchilikda belgilangan tartibda bankdan bankni moliyaviy sog'lomlashtirish, shu jumladan aksiyadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatish tadbirlarini amalga oshirishni talab qilishga haqlidir.

15. Dividendlarni to'lashda hisoblangan, biroq olinmagan foizli daromad summasiga tuzatilgan amalda mavjud foydadan kelib chiqish lozim.

16. Bank to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartiga solish bo'yicha vakolatli davlat organining (www.csm.gov.uz), bankning (www.kapitalbank.uz) va "Toshkent" RFBning (www.uzse.uz) rasmiy veb-saytlarida, qonunchilikda belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

4-BOB. DIVIDENDLARNI OLISH HUQUQIGA EGA SHAXSLAR

17. Aksiyadorlarga dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilingan aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reyestrda qayd etilgan shaxs aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda bank mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas.

18. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra bank ixtiyorida qoladi.

19. Dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda bankning aybi bilan to'lanmagan (olinmagan) taqdirda to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi.

20. Bank rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Aksiyadorning talablari sud tomonidan qanoatlantirilganda dividendlar bank tomonidan to'lanmagan taqdirda, bankka nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etish yoki bankrot deb e'lon qilish tartib-taomili qo'llaniladi.

5-BOB. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI

21. Bank aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlarni to'lash boshlanishi va yakunlanishi sanasi ko'rsatiladi. Dividendlarni to'lash muddati dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

22. Bank dividendlarni to'lash bo'yicha majburiyatni dividendlarni to'lash muddati davomida har qanday kunda bajarishga haqli.

23. Bir aksiyadorga hisoblangan dividendlar summasi muayyan turdagi bir aksiyaga to'g'ri keladigan dividendlar summasini aksiyadorga tegishli ushbu turdagi aksiyalar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

24. Bank dividendlar miqdorini ulardan ushlab qolinadigan soliqlar hisobga olinmagan holda e'lon qiladi.

6-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

25. Mazkur siyosat, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirishlar va / yoki qo'shimchalar bank Kengashi bilan tasdiqlanadi.

26. Mazkur siyosatda nazarda tutilmagan holatlarda bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya etadi.

27. Mazkur siyosat qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va / yoki bank Ustaviga mos kelmagan taqdirda, tegishli, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va / yoki bank Ustavi qoidalari qo'llaniladi.

Bunda bankning tegishli organi mazkur siyosatni ushbu siyosatning 25-bandida nazarda tutilgan tartibda qayta ko'rib chiqishni va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va / yoki bank Ustaviga muvofiq keltirishni ta'minlaydi.

Kiritildi:

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish
Departamenti direktori o'rinbosari

O.N. Ismoilov

Kelishildi:

Boshqaruv Raisi

K.A. Olimov

Boshqaruv Raisi o'rinbosari

B.T.
Yo'ldoshev

Boshqaruv Raisi o'rinbosari

Sh.K. Karimboyev

Boshqaruv Raisi o'rinbosari

A.K. Voistinov

Bosh buxgalter

Ye.Ye.
Skuybida

Yuridik xizmat departamenti direktori

M.D. Samandarov

Tavakkalchilikni boshqarish departamenti
direktori

M.D. Nurutdinova

Ichki audit departamenti direktori

D.N. Allayorova